

Voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlarni yuritishda advokat ishtirokini ta'minlash masalalari.

Ermakova Marjona Shavkat qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat Universiteti
“Advokatlik faoliyati” yo’nalishi magistratura talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada muallif tomonidan voyaga yetmaganlar jinoyati haqidagi ishlarni yuritishda advokat-himoyachining roli, protetssual maqomi, o’rni, ishtirokining protsessual-huquqiy mohiyati jinoyat protsessining tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va dastlabki tergov va sud bosqichida advokat ishtirokini ta’minalash masalalari xususida so`z yuritilgan.

Kalit so’zlar: voyaga yetmagan shaxs, guman qilinuvchi, ayblanuvchi, himoyachi, advokat, himoyalanish huquqi.

Аннотация: В данной статье автором рассматривается роль адвоката-защитника в ведении дел о преступлениях несовершеннолетних, его процессуальный статус, место, процессуально-правовая сущность участия на стадиях уголовного процесса, таких как проверка до следствия, дознание, предварительное следствие и судопроизводство, а также вопросы обеспечения участия адвоката на указанных стадиях.

Ключевые слова: несовершеннолетний, подозреваемый, обвиняемый, защитник, адвокат, право на защиту.

Annotation: This article examines the role of the defense attorney in handling cases related to juvenile crimes, including their procedural status, position, and the procedural-legal essence of their participation during various stages of the criminal process, such as pre-investigation checks, inquiry, preliminary investigation, and court proceedings, as well as issues related to ensuring attorney involvement in these stages.

Keywords: juvenile, suspect, accused, defender, lawyer, right to defense.

Kirish

O’zbekiston Respublikasida qonun ustuvorligini ta’minalash va har bir fuqaroning huquq va manfaatlarini himoya qilish jamiyatda adolatni qaror toptirishning muhim omillaridan hisoblanadi. Shu jumladan, voyaga yetmaganlar huquqlari alohida e’tiborni talab qiladi, chunki ular huquqiy jihatdan himoyasiz

qatlam sifatida qayd etiladi. Jinoyat protsessining barcha bosqichlarida voyaga yetmaganlarning qonuniy huquqlarini himoya qilish, ayniqsa, advokat ishtirokini ta'minlash ularning qonuniy manfaatlari buzilishining oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jinoyat sodir qilginniga qadar 18 yoshga to'limgan shaxslarning jinoyatlari haqidagi ishlarni yuritishda advokatning ishtiroki ulaming huquq, erkinlik va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda alohida ahamiyat kasb eladi. Voyaga yetmagan ayblanuvchi (gumon qilinuvchi) u dasllabki tergov yuritish davrida voyaga yetgan yoki yetmaganligidan qatiy nazar himoyachi bilan ta'minlanadi. Bunda uning jinoyat sodir etish vaqtida voyaga yetmagan bo'lganligi o'zi yetarli.¹

Voyaga yetmaganlar huquqlarini himoya qilishda jinoyat protsessining dastlabki bosqichlarida advokat ishtirokini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi (JPK) 48-moddasiga ko'ra, himoyachi voyaga yetmagan shaxsning huquqlarini himoya qilish, uning qonuniy manfaatlarini ta'minlash va unga nisbatan qonuniy qaror qabul qilinishida ishtirok etadi. Himoyachi mazkur jarayonning har bir bosqichida qatnashishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 51-moddasiga ko'ra, dastlabki tergov va sud jarayonida voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyat ishlari bo'yicha advokatning ishtiroki majburiy hisoblanadi. JPKning 52-moddasida esa, agar voyaga yetmagan shaxs himoyachidan voz kechsa ham, ushbu qoida o'z kuchini saqlab qolishi belgilangan. Protsessual qonun talablari buzilgan taqdirda, JPKning 419 va 487-moddalariga binoan, bu holat hukmning bekor qilinishiga asos bo'luvchi jiddiy protsessual xato sifatida baholanadi. Himoyachi ishtiroki talab etilgan holatlarda, uning ishtirokisiz olingan har qanday dalil yuridik jihatdan haqiqiy emas deb topiladi.

Jinoyat-protsessual kodeksining 550-moddasiga muvofiq, voyaga yetmagan shaxs gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi sifatida birinchi marotaba so'roq qilinishidan boshlab, surishtiruvchi yoki tergovchi himoyachining ishtirokini ta'minlashi kerak. Biroq, JPKning 48, 110, 111 va 550-moddalarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, advokatning ishtiroki voyaga yetmagan shaxs gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi sifatida so'roq qilinishidan oldinroq boshlanishi zarur. Masalan,

¹ O'zbekiston Respublikasida advokatlik faoliyati darslik / M H. Rustambayev, U.A. Tuxtashova; O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. Toshkent davlat yuridik instituti. Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyatni nashriyoti, 2012 384 bet.

JPKnинг 49-moddasiga binoan, voyaga yetmagan shaxs ushlanganidan boshlab, ya'ni uning harakat erkinligi cheklangan vaqtdan boshlab, advokat ishtirok etishi majburiy hisoblanadi. Shuningdek, JPKning 48 va 53-moddalariga ko'ra, voyaga yetmagan shaxs gumon qilinuvchi deb e'tirof etilganda, ushlanganligi yoki unga ayblov e'lon qilingan paytdan boshlab ham advokatning ishtiroki ta'minlanishi shart.

Asosiy qism

Advokat shuni e'tiborga olishi lozimki, Jinoyat-protsessual kodeksining 554-moddasiga muvofiq, voyaga yetmagan ayblanuvchini so'roq qilish jarayonida tergovchi yoki prokuror pedagog yoki psixologning ishtirokini o'z xohishiga ko'ra ta'minlashi mumkin. Biroq, agar ayblanuvchi 16 yoshga to'limgan yoki rivojlanishdan ortda qolgan bo'lsa, advokatning ushbu jarayonga pedagog yoki psixologni jalg qilish to'g'risida iltimosnama kiritishi maqsadga muvofiqdir. Bu mutaxassislar nafaqat voyaga yetmaganlarning ruhiy holatini yaxshiroq tushunishda, balki so'roq davomida ularni himoya qilish uchun muhim bo'lgan dalillar va faktlarni aniqlashda yordam beradi.

Voyaga yetmagan gumon ostidagi shaxs va ayblanuvchi so'roq qilinayotganda unga himoyachi ham savollar berishga, so'roq tugagach so'roq bayonnomasi bilan tanishib, u haqda o'z mulohazalarini bildirishga haqli. Voyaga yetmagan gumon ostidagi shaxs va ayblanuvchi bir kun davomida olti soatdan ortiq so'roq qilinishi taqiqlangan. Unga dam olish va ovqatlanish uchun vaqt ajratilishi lozim. Umuman so'roq qilish joyi va shart-sharoitlari bilan ham himoyachi qiziqishi, g'ayriqonuniy va odob-axloqqa zid uslublar qo'llanilmasligini talab qilishi lozim.²

Advokat voyaga yetmagan ayblanuvchini qamoqqa olish masalasini ko'rib chiqishda qonunning barcha talablariga, jumladan, Jinoyat-protsessual kodeksining (JPK) 558-moddasi talablariga rioya qilinishini ta'minlashi zarur. Voyaga yetmagan shaxsga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyyot chorasi qo'llash bo'yicha iltimosnomani ko'rib chiqishda, ayblanuvchini prokuror tomonidan so'roq qilish jarayonida advokatning ishtiroki majburiy hisoblanadi. Shu bilan birga, advokat voyaga yetmaganning qonuniy vakili, pedagog yoki psixolog ishtirokini ta'minlash choralarini ham ko'rishi lozim.

Voyaga yetmagan ayblanuvchini bolalar muassasasiga joylashtirish masalasi JPKning 557-moddasiga muvofiq, agar ehtiyyot choralarini qo'llash uchun asoslar

² O'zbekiston Respublikasi Advokatli faoliyati II jild. 2007 M.X.Rustamboyev. B.Salomov

mavjud bo‘lsa va voyaga yetmagan ayblanuvchini yoki sudlanuvchini turmush va tarbiya sharoitiga ko‘ra uning avvalgi yashash joyida qoldirish imkonи bo‘lmasa, tergovchi tomonidan prokuror sanksiya bergen qaror asosida yoki sudning ajrimiga binoan uni bolalar muassasasiga joylashtirish mumkin. Advokat bu jarayonda O‘zbekiston Respublikasining "Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida"gi qonuniga asosan, voyaga yetmaganni bolalar muassasasiga yoki Voyaga yetmaganlarni ijtimoiy himoya qilish markaziga joylashtirish masalasini sud orqali hal qilishda ishtirok etishni nazarda tutishi shart. Ushbu holatlar advokat tomonidan huquqiy himoya va adolatli jarayonni ta’minalash maqsadida nazorat qilinishi zarur.

•JPKnинг 558-moddasi bo‘yicha voyaga yetmagan shaxsni qamoqqa olish qoidalari

JPKnинг 558-moddasiga asosan, voyaga yetmagan shaxsga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi faqat unga rasmiy ayb e’lon qilingandan so‘ng qo‘llanilishi mumkin. Qamoqqa olishga ruxsat berishdan oldin prokuror ayblanuvchini shaxsan himoyachi ishtirokida so‘roq qilishi shart. Shuningdek, ushbu chora uchun favqulodda jiddiy asoslarning mavjudligini chuqur tekshirish talab etiladi, bu esa himoyachining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, advokat bu jarayonga voyaga yetmagan shaxsning qonuniy vakili, pedagog yoki psixologni jalb qilish uchun zarur choralarini ko‘rishi kerak. Bu nafaqat qonuniylikni ta’minalash, balki voyaga yetmagan shaxsning huquqlarini himoya qilishni ham kafolatlaydi. Odatda, voyaga yetmagan ayblanuvchi qamoqqa olishdan ko‘ra, ota-onasi, vasiylari, homiylari yoki bolalar muassasasi nazoratiga topshirilishi lozim. Bu tartib voyaga yetmaganlarning huquqlarini himoya qilish va ularning jamiyatdagi ijtimoiy adaptatsiyasini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan.

•Tergov yakunlangandan so‘ng ayblanuvchining ish materiallari bilan tanishushi.

Tergov yakunlangach, ayblanuvchi himoyachi yordamida ish materiallari bilan tanishishi kerak. Biroq, agar ishdagi ba’zi materiallar voyaga yetmagan ayblanuvchining xulq-atvoriga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lsa, bunday hollarda faqat himoyachi ushbu materiallar bilan tanishadi.

•Sud jarayonida voyaga yetmagan ayblanuvchining himoyasi.

Sud majlislari, zarur bo‘lganda, yopiq tartibda o‘tkazilishi mumkin. Voyaga yetmagan shaxsga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan holatlar ko‘rib chiqilayotganda, sudlanuvchi sud zalida bo‘lmasligiga ruxsat beriladi. Bu holatlarda himoyachi ayniqsa ehtiyotkorlik bilan ish yuritishi va ayblanuvchining manfaatlarini maksimal darajada himoya qilishi lozim.

Shunday qilib, voyaga yetmagan shaxsga nisbatan qamoqqa olish tartibi qat’iy qonunchilik talablariga muvofiq amalga oshiriladi. Himoyachi ushbu jarayonlarda voyaga yetmagan shaxsning huquqlarini himoya qilishda asosiy rol o‘ynashi va uning ruhiy holatiga zarar yetkazmaslikka harakat qilishi zarur. Bu, o‘z navbatida, qonunga muvofiq adolatli qaror chiqarishga yordam beradi.

Xulosa:

Voyaga yetmagan shaxslarning huquqlarini himoya qilish jinoyat-protsessual jarayonlarning barcha bosqichlarida alohida e’tibor talab qiladi. Advokatning ishtiroki nafaqat qonuniylikni ta’minalash, balki voyaga yetmaganlarning ruhiy va ijtimoiy himoyasini kafolatlash uchun ham zarur. JPKning tegishli moddalari himoyachining majburiy ishtirokini belgilab, voyaga yetmaganlarga nisbatan qamoqqa olish yoki boshqa ehtiyot choralar faqat zarur hollarda va qat’iy qonunchilikka rioya qilingan holda qo‘llanilishini ta’kidlaydi. Ushbu yondashuv voyaga yetmaganlarning huquqiy manfaatlarini ta’minalash va adolatli qaror chiqarishda muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasida advokatlik faoliyati darslik / M. H. Rustambayev, U.A. Tuxtashova; O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. Toshkent davlat yuridik instituti. Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyatni nashriyoti, 2012 384 bet
2. O‘zbekiston Respublikasi Advokatli faoliyati II jild. 2007 M.X.Rustamboyev. B.Salomov
3. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy kengashining axborotnomasi 1995 y.
4. Jinoyat-protsessual huquqi. Umumiy qism. Darslik. // Mualliflar jamoasi. / yu.f.d., dots. G.Z. To‘laganova va yu.f.n., dots. S.M.Raxmonovalarning umumiy tahriri ostida –Toshkent: TDYU nashriyoti, 2016. – 468 bet.